

QADIMGI YUNONISTON TARIXI MANBASHUNOSLIGI

SHDPI TARIX KAFEDRASI O'QITUVCHISI **Bobojonov Behruz**

SHDPI 2-KURS TALABASI **Otamurodov Doniyorbek**

SHDPI 1-KURS TALABASI **Ergasheva Nargiza**

SHDPI 1-KURS TALABASI **Xushvaktov Dilshod**

Annotatsiya: Qadimgi Yunoniston tarixi manbashunosligi, yunon tarixining o'rganilishi va tarixiy manbalarining tahlili bilan bog'liq ilmiy sohadir. Ushbu maqolada, yunon tarixiy manbalarining turli turlari, ularning tarixiy ahamiyati va ularni tadqiq qilish metodologiyasi ko'rib chiqiladi. Ayniqsa, arxeologik, yozma va og'zaki manbalar, shuningdek, tarixiy manbalarni tahlil qilishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar haqida so'z boradi. Shuningdek, qadimgi yunon tarixini o'rganishda ilmiy yondashuvlarning o'zgarishi va yangi yondoshuvlar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Qadimgi Yunoniston, tarixiy manbalar, arxeologiya, yozma manbalar, og'zaki tarix, manbashunoslik, tarixiy tahlil, yunon tarixi, tarixshunoslik metodologiyasi.

Qadimgi Yunoniston tarixiga oid manbalar ko'pligi va yaxshi saqlanib qolganligi bilan boshqa hududlar tarixidan farq qiladi. Yunoniston tarixi manbashunosligida qadimgi tarixchilarning asarlari muhim o'rin tutadi. Er avVI—V asrlarda tarix fani gullab yashnagan davridir. Bu davr tarixchiligini g'arb olimlari «Aliolida polislar tarixi» deb atashadi. Bu davrdagi ko'zga ko'ringan tarixchilardan: Gerodot, Fukidid va Ksenofontni olish mumkin.

Makedoniyalik Aleksandring sharqqa yurishlaridan so'ng Yunoniston tarixida yangi tarix maktabi — Arastu maktabi shakllandi. Bu davrning eng ko'zga ko'ringan asari Arastuning «Politiya» asaridir. Bu asar Arastu va uning shogirdlari tomonidan yozilgan bo'lib, yunon polisleri, O'rta yer dengizi qirg'oqlaridagi yunon koloniyalari haqida muhim ma'lumot beradi. Asar juda ko'p boiimlardan iborat bo'lsa-da, uning faqat bizgacha «Afina politsiyasi» qismi yetib kelgan. Ellin davriga kelib yunon jamiyatidagi keskin o'zgarishlar, katta davlatlarning vujudga kelishi bilan umumiy tarixga asos solindi. Bu davrning eng ko'zga ko'ringan tarixchilaridan biri Timey bo'lib, u o'zining asarida Bolqon Yunonistoni, g'arbiy yunon mustamlakalari haqida muhim ma'lumotlar beradi.

Qadimgi yunon tarixi bo'yicha eng muhim manbalardan biri arxeologik topilmalar hisoblanadi. Arxeologlar Bolqon Yunonistoni va Egey dengizi orollaridagi qadimgi ibodatxonalar, saroylar, mudofaa inshootlarini qazib ochdilar. Ayniqsa, Krit orolida ingliz arxeologi A. Evans 40 yildan ko'proq vaqt Knoss saroyini qazib ochdi. Kichik Osiyoda nemis arxeologi G. Shlimanning Troya xarobalarini qazib ochishi qimmatli ma'lumotlarni berdi. Me'muar asarlar. Polislarining yemirilishigacha yunonlar tarix va adabiyotga oid asarlarni me'muar shaklda yozishgan. Er avIV asrdagi eng yirik me'muar asar Ksenofontga tegishli. U asosan harbiy sohaga oid ma'lumotlarni beradi. Ellinizm davrida me'muar va avtobiografik asarlar yozish odat tusiga kirdi. Ellin davri siyosatchilaridan Pirra va Arata eng yirik tarixiy asarlar mualliflari hisoblanadilar. Ular «Axey ittifoqi» haqida keng ma'lumotlarni yozib qoldirishgan. Xatlar. Antik jamiyatda xatlar muhim o'rin tutgan. Ular ikki xil shaklda ochiq va yopiq shaklda yozilgan. Platon, Isokrat va Sallyustiylar yozgan ochiq xatlarida falsafiy muammolar haqida fikr yuritilgan. Yopiq xatlar davlat ahamiyatiga molik xatlar bo'lib, maxsus kishilar nomidan yozilgan. Ularda asosan siyosiy va maxfiy ma'lumotlar yozilgan. Shoirlar va ularning asarlari. Yunon she'riy adabiyotining shakllanishi er avIX—VIII asarlarga tegishli bo'lib, bu davmi «Gomer davri

she'riyati» deyishadi. Gomer, Gesiod va dramaturglar Esxil, Sofoklning asarlari juda yaxshi saqlangan. Gesiod o'zining «Mehnat va kunlar» asarida yunon jamiyatidagi ijtimoiy ziddiyatlar haqida yozadi.

Yunon tarixi' Qadimgi dunyo tarixining bir qismi hisoblanadi. Qadimgi yunon tarixi doirasida Bolqon yarim oroli, Egey dengizi havzasi, janubiy Italiya, Sitsiliya oroli va shimoliy Qora dengiz bo'yi, Kichik Osiyoning g'arbiy qirg'og'idagi qadimgi jamiyatlamining shakllanishi, gullab-yashnashi va tushkunlik davrini o'rganadi. Yunon sivilizatsiyasi tarixi uch bosqichga boiinadi: birinchisi — bu er avII ming yillikda Krit va Mikenada ilk sinfiy jamiyatlar va davlat birlashmalarining paydo boiishi va halokati. Ikkinchi bosqich — bu Krit-Miken sivilizatsiyasining halokatidan keyin antik Yunonistonning er avXII asrdan er avIV asrning so'nggi choragigacha bo'lgan taraqqiyot davrini o'z ichiga oladi. Qadimgi Yunon jamiyati taraqqiyotining eng yuqori cho'qqisi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy davlat tuzilmasi bo'lgan yunon polislarining tug'ilishi, yuksalishi va tushkunligi bosqichi boidi.

Er avIV asrning so'ngi choragida yunon-makedonlar tomonidan Ahamoniylar Eroni davlatining bosib olinishidan yunon tarixining uchinchi so'nggi bosqichi boshlanadi. Bu bosqich qariyb uch yuz yilni ,o'z ichiga olib, sharq va g'arb madaniyati unsurlarini o'z ichiga olgan Ellin davlatlarining tashkil topishi, ellin madaniyatining rivojlanishi davridir. Bu bosqich er avI asr so'ngida ellin davlatlarining g'arbdan Rim, sharqdan Parfiya tomonidan bosib olinishi bilan tugaydi. Bolqon Yunonistonida davlatchilik taraqqiyotining yangi davri taxminan er avXI asrdan boshlanadi. Bu davrdan antik Yunoniston taraqqiyotining polis davri boshlanadi. U o'z ichiga uch davmi oladi:

1. Er avXI—IX asrlar — Gomer yoki polis arafasi («Qorongi asrlar»). Bu bosqichda Bolqon Yunonistoni hududida urug'-qabila munosabatlari hukmron boiadi.
2. Arxaika davri (er avVIII—VI asrlar) — polisdavlatlarning shakllanishi, Buyuk Yunon kolonizatsiyasi va ilk Yunon tiraniyalari davri.

3. Klassik Yunoniston (er avV— IV asrlar.) — Qadimgi yunon polisleri, ularning iqtisodiyoti va yunon madaniyatining gullab-yashnagan davri.

Makedoniyalik Iskandarning Sharq yurishlaridan keyin Ellin davlatlarining tashkil topishi bilan qadimgi yunon tarixida yangi ellin davri (er avIV asrning so'ngi choragi - er av30-yillar) boshlanadi .

Qadimgi Yunoniston tarixi manbashunosligi, yunon madaniyati va siyosatini to'liq tushunish uchun muhim ilmiy soha hisoblanadi. Yunonistonning tarixi haqida yozilgan manbalar va arxeologik topilmalar, qadimiy davrlar haqida qimmatli ma'lumotlar taqdim etadi. Yozma manbalar, masalan, Herodot, Tukidid, Platon va Aristo kabi tarixchilar asarlari, yunonlarning siyosiy, madaniy va ijtimoiy hayoti haqida chuqur tasavvur beradi. Biroq, bu manbalar o'z davrining muayyan qarashlarini aks ettirganligi sababli, ularni tahlil qilishda ehtiyotkorlik talab etiladi.

Arxeologiya, o'z navbatida, yunonlarning kundalik hayotini, diniy amaliyotlarini va madaniy merosini yanada aniqroq yoritishda yordam beradi. Yangi texnologiyalar va metodologiyalar yordamida, qadimgi Yunoniston haqidagi bilimlarimiz doimiy ravishda kengayib bormoqda. Shuningdek, tarixiy manbashunoslikka bo'lgan yondashuvlar o'zgarib borgan, masalan, postkolonial va feminist tarixshunoslik oqimlari yunon tarixi va madaniyatini boshqa nuqtai nazardan ko'rib chiqishga yordam bermoqda.

Umuman olganda, qadimgi Yunoniston tarixi manbashunosligi nafaqat yunon madaniyatining rivojini o'rganish, balki insoniyat tarixining muhim bosqichlarini aniqlashda ham katta

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

DEKABR

ANDIJON, 2024

ahamiyatga ega. Bu soha rivojlanishda davom etmoqda va uning yangi yondashuvlari tarixiy tafakkurni yanada chuqurlashtiradi.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. ABDUJABBOR KABIROV. QADIMGI SHARQ TARIXI TOSHKENT 2016
2. RAJABOV RAVSHAN JAHON TARIXI 1 QISM .RAJABOV RAVSHAN TOSHKENT YANGI ASR AVLODI.
3. F.BOYNAZAROV QADIMGI DUNYO TARIXI.TOSHKENT 2002.
4. VSEVOLOD AVDIYEV QADIMGI SHARQ TARIXI TOSHKENT 1964.
5. ANATOLIY SAGDULLAYEV QADIMGI SHARQ TARIXI.
6. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES, 2(9), 57-62.
7. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. Science and innovation, 3(Special Issue 3), 141-144.
8. Begaliyev, N. X. (2022). ETNOLOGIK TADQIQOTLARDA TERMINOLOGIYA MUAMMOSI. Oriental Journal of Social Sciences, 2(2), 69-72.
9. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
10. Sobit, K. (2023). THE LAUNCH OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN THE NEIGHBORHOODS OF SHAHRISABZ CITY. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(1), 398-401.
11. Sunnatovich, Q. I., & Sobit, K. (2023). VARGANZA QISHLOG‘IDAN TOPILGAN YODGORLIKLAR TARIXI (I-XV ASRLAR). JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 2(9), 33-35.
12. Bobokulovna, Q. F. (2024). RESPUBLIKA “TADBIRKOR AYOL” UYUSHMASINING AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOLANTIRISHDAGI ROLI. TADQIQOTLAR. UZ, 35(1), 111-113.
13. Qanoatova, F. (2024). TURIZM RESURSLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING AHAMIYATI. YANGI O ‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
14. Tolibov, N. (2024). EKOTURIZM SOHASIDA TARIXIY JOYLAR VA OBIDALARNING AHAMIYATI. YANGI O ‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
15. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 984-989.
16. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – T. 10. – №. 1S. – C. 5000-5006.
17. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization //Global Scientific Review. – 2023. – T. 13. – C. 7-10.
18. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o‘g‘li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘ //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

DEKABR

ANDIJON, 2024

19. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – С. 135-139.
20. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
21. R. Rajabov. Qadimgi Sharq harbiy san'ati . Toshkent .2018.
22. Бобожонов, Бехруз Баходир ўғли. ШАҲРИСАБЗНИНГ ТАРИХИЙ БОЗОРЛАРИ ВА САВДО-ИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАРИ. 1344-1351